

**DUNYODA OITS XAVFLI INFEKSIYASI BILAN  
KASALLANGANLAR SONI TOBORA ORTIB BORMOQDA**

*O`ktamjonova Parvina Umid qizi*

*Toshkent Davlat Stomatologiya Institutining Davolash Ishi Fakulteti Talabasi*

*E-mail: parvinauktamdjanova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Dunyoda 30 milliondan ortiq kishi OITSGa chalingan(2-dekabr 2013-yil holati bo`yicha).

1 dekabr - Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan OITSGa qarshi kurash xalqaro kuni deb e`lon qilingan bo`lib, bu yil u 26-marta nishonlandi.

BMTga ko`ra, ushbu xastalikka chalinishning oldini olish va davolash bo`yicha ko`rilayotgan choralarga qaramasdan, SPIDni yuqtirgan insonlarning soni yuqoriligicha qolmoqda. Tashkilot bu raqam 35 million atrofida ekanini ma`lum qiladi.

O`zbekistonda OITSni (SPID) yuqtirib olganlarning umumiy soni 45 mingni tashkil qildi, shundan 55 foizi erkaklar va 45 foizi ayollardan iborat. Kasallikka chalinganlarning 14 foizi esa 18 yoshga to`lmagan bolalarga to`g`ri kelmoqda. Kasallanish ko`rsatkichi eng yuqori hudud esa Toshkent shahri hisoblanadi.

### **KIRISH**

OITS o`zi qanday kasallik? Qanday qilib uning oldini olish mumkin?

OITS (ortirilgan immun tanqisligi sindromi) – sindromi OIV (orttirilgan immun tanqisligi virusi) tomonidan chaqiriladigan kasallik. Kasallik inson immun tizimini o`zgartiradi, infeksiya va boshqa kasalliklarga sezuvchanlikni oshiradi. Agar bu sindrom rivojlansa bu sezuvchanlik yanada oshadi. OIV virusi odamning barcha to`qimalarida uchraydi, zararlangan odamning organizm ichki suyuqliklari orqali yuqadi. Masalan sperma, qin ajralmasi, qon va ko`krak suti orqali tarqalishi aniqlangan. Ma`lumotlariga ko`ra, kasallik bilan zararlangan har 8 insondan 1 si o`zining OIV bilan zararlangani bilmaydi. OIV virusining tashxisi umumiy qon tahlili orqali aniqlanadi. Agar OIV topilsa, musbat natija bo`ladi. Bu analiz takror qilib ko`riladi. Agar inson virus bilan zararlanish holatiga uchragan bo`lsa, tezroq analiz tahlili topshirishi kerak. Virus bilan zararlangandan so`ng 3 oydan 6 oygacha test o`tkazish kerak.

**1981 yil 5 iyunda Amerika** kasalliklar ustidan nazorat markazi yangi xastalikni ro`yxatdan o`tkazgan. Bu Orttirilgan Immun Yetishmovchiligi Sindromi edi.

1988 yil Dunyo sog`liqni saqlash vazirlari uchrashuvidan so`ng 1 dekabr SPIDga qarshi kurash kuni deb e`lon qilindi. 1996 yilda BMT qoshida olti xalqaro tashkilot ittifoqi tuzilib, BMTning SPID muammolari bo`yicha qo`shma loyihasi deb atala boshlandi.

SPIDga qarshi kurash ramzi qizil lenta bo'lib, bu sohada biror harakat ushbu ramzsiz o'tkazilmaydi. Ushbu bog'ich rassom Frank Muru g'oyasi bo'lib, u 1991 yil bahorida SPIDni tushunish ramzi sifatida qabul qilingan. SPID asr balosi sifatida tan olingan. SPID uchun ta'sirli dori vositasi hozirga qadar o'ylab topilmagan.

BMT Bosh kotibi "SPIDni jilovlash alohida majburiyatni talab qiladi", degan.

"OITS hech qaysi xastalikka o'xshamagan xastalikdir. OITS ijtimoiy masala, inson huquqlari masalasi, iqtisodiy masaladir. U yosh insonlar iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishlari, aqliy salohiyatni oshirishlari, bolalarni voyaga yetkazishlari kerak bo'lgan yoshda nishonga oladi", deb aytgan Pan Gi Mun.

Ma'lumotlarga ko'ra, OITSGa chalinishi oqibatida vafot etgan insonlarning to'rt dan uch qismi Afrika qit'asiga to'g'ri keladi.

Halokatli virusni yuqtirganlarning soni dunyoning hamma joyida keng tarqalmoqda, biroq bu boradagi raqamlar Sharqiy va Markaziy Osiyo mamlakatlari, Sharqiy Ovropoda boshqa joylarga nisbatan tez sur'atda ko'payayotgani kuzatilmoqda. OITS infeksiyasi bilan kasallanganlarning uchdan ikki qismi yuqoridagi mintaqalarda aniqlangan.

2012 yil boshidagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 21500 dan ortiq OITS infeksiyasini yuqtirgan kishi aniqlangan. 2008 yilda Rossiya hududida mehnat qilayotgan qariyb 1 million 100 kishi tekshirib ko'rilganda 1579 virusni yangi yuqtirish holatlari aniqlangani aytilgandi. OITSni yuqtirgan muhojirlarning eng ko'pi Ukrainadan bo'lganlar, ikkinchi o'rinni o'zbekistonliklar egallagan.

Jahon Sog'likni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlarning OITSGa qarshi kurash idorasi ma'lumotlariga ko'ra, Afg'onistonda unga yo'liqqan qariyb 5000 kishi istiqomat qilayapti, deb ko'riladi. Xalqaro tashkilotlar hisob-kitobicha, Afg'onistonda OITS xastaligini yuqtirish oxirgi 1 yilda 30 foiz ko'paygan. Afg'onistonda bu kasallikka yo'liqqanlarning aksari igna orqali qo'llariga giyohvand modda yuborayotganlar bo'layapti.

### **Elinaning hayot hikoyasi.**

Bugungi kunda O'zbekistondagi muassasalarda ellik to'rt nafar OIV bilan yashaydigan istiqomat qiladi. 22 yoshli Elina ismli qiz to'rt yil avval muassasani tark etgan. U o'z hayotidagi kurash va kelajak haqidagi orzulari bilan o'rtoqlashdi: "Tug'ilganimda menga OIV-infeksiya tashxisi qo'yilgan. Virus menga onamdano'tgan. Tashxisim tasdiqlangach, onam meni tug'ruqxonada qoldirib ketgan. Olti yoshga to'lganimda retrovirusga qarshi terapiyani, ya'ni virus tarqalishining oldini oladigan dori-darmonlarni qabul qilishni boshladim. Shifokorning aytishicha, men OIV bilan kasallangan bolalar orasida birinchi bo'lib normal kelajakka ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganman. Retrovirusga qarshi samarali terapiya amaliyoti O'zbekistonda 2006 yilda boshlangan edi. 13 yoshimda OIV maqomim haqida birinchi bor eshitdim. Men vahima qilmadim; ilgari OIV haqida eshitgan bo'lsam-da, mening

bunga munosabatim normal bo'ldi. Ko'p o'tmay, bolalar uyidagilarining barchasi mening ahvolim haqida xabar topganligini bilib qoldim. Ajablanarlisi shuki, u yerda menga bo'lgan ijobiy munosabat o'zgarmadi, chunki bu bolalar uyi xodimlari avval ham menga o'xshagan bolalar bilan ishlashgan. O'sha paytda u yerda 11 nafar OIV infeksiyasini yuqtirgan bolalar yashar edi. Keyin meni boshqa bolalar uyiga ko'chirishdi. U yerda hamma narsa boshqacha edi. Menga yaxshi munosabatda bo'lishmadi. O'g'il bolalar meni kamsitishdi va haqorat qilishdi. Ular boshqalarga menga yaqinlashmaslik kerakligini aytish erdi. Bir oy oldin men mehribonlik uyidagi do'stimni ko'rishga bordim. U menga o'xshash OIV bilan yashaydigan bolalarni sog'lom bolalardan boshqa xonada ajratib qo'yishayotganligini aytdi. Bu bolalar faqat ularning o'zlari uchun mo'ljallangan idishlardan yeb-ichadilar.

O'qituvchilar dori vositalarining kuchi haqida bilmasligi meni hayratda qoldirdi. O'qituvchilar ham, bolalar ham virus tarqalishining oldini olish mumkinligini va OIV bilan yashovchi bola ham normal hayot kechirishi mumkinligi to'g'risida bilishlari va tushunishlari kerak. Shu sababli muassasalardagi tarbiyachilar bolalarga jiddiy e'tibor berishlari va dori-darmonlarni qabul qilishni hech qachon o'tkazib yubormasliklariga ishonch hosil qilishlari kerak. Men zudlik bilan o'sha mehribonlik uyi o'qituvchilari uchun trening o'tkazish kerakligi yuzasidan mutaxassislariga murojaat qildim. Keyingi haftada o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Hozir u yerdagi vaziyat yaxshilangan. Mehribonlik uyida yashagan paytimda meni hech kim farzandlikka olmagan, chunki sog'lom oilalar OIV bilan kasallangan bolalarni olishni xohlamas edilar. Endilikda, bolalarga maxsus muassasalarda bolalar sonini qisqartirish to'g'risida yangi qonun qabul qilinganligi sababli, mehribonlik uylari OIV bilan yashaydigan bolalarni sog'lom oilalarga ham berishni boshladilar.

"Men duch kelgan yana bir muammo - bu diplom olish va kasbni o'rganishdagi cheklovlar".

Bolalar uyidan chiqqanimdan keyin bir yil o'tgach, davlat tomonidan menga bir xonali kvartira berildi. Men bu kvartirada boshqa bir qiz bilan yashayman. Bir necha yil oldin men biologik oilamni qidira boshladim va onam va buvim vafot etganlarini bildim. Otam va akamni topa oldim. Ular Rossiyada ekan, hozir ular bilan aloqadamiz. Afsuski, men u yerga ko'chib keta olmayman, chunki 25.07.2002 sanadagi "Rossiya Federatsiyasida xorijiy fuqarolarning huquqiy holati to'g'risida" federal qonunga ko'ra OIV-musbat muhojirlarga Rossiyada doimiy yashash ta'qiqlangan. Men duch kelgan yana bir muammo - bu diplom olish va kasbni o'rganishdagi cheklovlar. Mening OIV maqomim tibbiyot kollejiga kirishga, sartarosh, shifokor, oshpaz bo'lib ishlashga imkon bermadi, shuning uchun iqtisodiyot fakultetiga kirishga majbur bo'ldim. Ammo hozir hamma narsa o'zgardi va OIV bilan yashaydigan odamlar qon bilan yaqin aloqa qilishni talab qilmaydigan ko'plab joylarda ishlashlari mumkin bo'lib qoldi".

Elina O'zbekistonda OIV tashxisi bilan ro'yxatga olingan birinchi boladir. Shuningdek, u maqomi sababli ota-onasi tomonidan tashlab ketilgan va 2006 yilda O'zbekistonda retrovirusga qarshi davolanishni olgan birinchi boladir. Hozir u tengdoshlari, o'qituvchilari va hatto ish beruvchilardan unga nisbatan teng munosabatda bo'lishlariga harakat qilayotgan g'ayratli qiz namunasidir. Hozirda u muassasalarda yashovchi OIV maqomiga ega bo'lgan boshqa bolalarga yordam berishga harakat qilmoqda. U bolalarning oldiga tashrif buyuradi, ularga maslahatlar berib, yashasga rag'batlantiradi. U bolalarni parvarish qilish bo'yicha mutaxassislarga bolalarning fikrlash tarzini o'zgartirish va tamg'a qo'yishga chek qo'yish uchun OIV bo'yicha saboq berishni boshlash yo'lida tashabbus ko'rsatmoqda.

Mana ko'rib turganimizdek atrofimizda bu infeksiya bilan kasallanganlar soni tobora ortib bormoqda. Ammo bu ularning inson sifatidagi huquqlariga hech qanday chegara qo'ymaydi. Har bir inson baxtli yashash huquqiga ega va bu huquqdan uni qandaydir virus mahrum eta olmaydi. Eng muhumi bu infeksiyani oldini olish va tarqalishini kamaytirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000-2005)
2. Tibbiyot ensiklopediyasi. (2000-2005)
3. Gazeta.uz
4. Kun.uz